



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2022- YILNING
YANVAR-AVGUST
OYLARIDA



Dastlabki ma'lumotlar

	2021- y. yanvar-avgust	2022- y. yanvar-avgust
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm	11 550,2	14 234,5
Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da	119,3	114,4
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm	2 913,0	3 514,4
Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmalarning o'sish sur'atlari, % da	117,1	112,0

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 684,3** mlrd. so'mga oshib, **14 234,5** mlrd. so'mga yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-avgust oylariga (**119,3** %) nisbatan o'sish sur'ati **114,4** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi

bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Xizmatlar

iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2022- yil yanvar-avgust oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	14 234,5	114,4
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	674,4	122,2
Moliyaviy xizmatlar	2 444,7	142,7
Transport xizmatlari	3 357,8	107,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	3 163,4	108,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	483,8	105,6
Savdo xizmatlari	3 952,9	108,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	354,7	112,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	616,3	99,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	304,8	119,5
Ijara xizmatlari	428,7	115,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	423,1	108,7
Shaxsiy xizmatlar	629,8	111,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	219,6	104,8
Boshqa xizmatlar	343,9	125,3

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar savdo xizmatlari (**27,8 %**), transport xizmatlari (**23,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**17,2 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (**4,7 %**) qayd etildi.

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,6 %** ga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da
(2022- yil yanvar-avgust oylarida)

Savdo
xizmatlari –
27,8

Transport
xizmatlari –
23,6

Moliyaviy
xizmatlar –
17,2

Boshqa
xizmatlar –
14,9

Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari –
4,7

Ta'lim
sohasidagi
xizmatlar –
4,3

Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari –
3,4

Ko'chmas mulk
bilan bog'liq
xizmatlar –
2,5

Me'morchilik
sohasidagi
xizmatlar –
1,6

2022- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar sohasida yuqori o'sishga erishildi (**17,2 %**). 2021- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan solishtirganda farq **22,6** punktni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust va 2021- yillari uchun aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sish sur'atlari o'rtasidagi maksimal ijobiy tafovut **5,3** punkt darajasida qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, % da




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Savdo xizmatlari
(yanvar-avgust
oylarida)**

**O'sish
sur'ati, % da**

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Transport
xizmatlari**
(yanvar-avgust
oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Avtomobil transporti
xizmatlari
(yanvar-avgust
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*

2022- y. 108,0

2021- y. 115,4

3 163,4

2 757,5

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Moliyaviy
xizmatlar**
(yanvar-avgust
oylarida)

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*

*O'sish
sur'ati, % da*



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.





*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari
(yanvar-avgust
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Ta'lim sohasidagi
xizmatlar
(yanvar-avgust
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



2022- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **616,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,3** % ini tashkil etdi. 2021- yil yanvar-avgustga nisbatan o'sish sur'ati **99,2** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgustda xizmatlar hajmi **566,3** mlrd. so'mni tashkil etgan. 2020- yilga nisbatan esa **58,6** % ga o'sish qayd etilgan.




*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

**Yashash va
ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
(yanvar-avgust
oylarida)**

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida

Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar
(yanvar-avgust oylarida)

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

O'sish
sur'ati, % da



2022- yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **304,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,1** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgustiga nisbatan o'sish sur'ati **119,5** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-avgust oylarida ushbu xizmatlar hajmi **229,9** mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining **2,0** % ini tashkil etgan.



*Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida*

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Samarqand viloyati	14 234,5	114,4	119,3
Samarqand shahri	6 166,8	118,8	123,9
Kattaqo'rg'on shahri	323,8	111,3	116,6
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	492,2	110,5	116,5
Bulung'ur	379,9	110,7	117,5
Jomboy	569,5	110,6	114,9
Ishtixon	504,2	111,0	115,2
Kattaqo'rg'on	557,1	110,7	114,2
Qo'shrabot	279,6	110,5	114,6
Narpay	468,6	110,8	115,7
Payariq	500,2	111,2	115,3
Pastdarg'om	864,6	111,0	114,5
Paxtachi	311,9	110,5	113,2
Samarqand	954,3	112,8	115,9
Nurobod	281,5	110,5	114,3
Urgut	967,1	112,9	116,6
Toyloq	613,2	111,2	124,2

Dastlabki ma'lumotlar
2022- yil yanvar-avgust oylarida

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining
asosiy
ko'rsatkichlari
(yanvar-avgust
oylarida)

*O'sish
sur'ati, % da*

*Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm*



2022- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 514,4** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,0** % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha Samarqand shahrida **10 924,3** ming so'mdan Nurobod tumanida **1 795,5** ming so'mgachani tashkil etdi.



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 66-230-45-34